



**BUXORO DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI**

**ILMIY – METODIK JURNAL**

No. 2

## ONA TILI O‘QITISH METODIKASINING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI:TAQIQOTLAR VA YONDASHUVLAR (Alijon Hamroyevning ilmiy maktabi misolida )

*To‘raboyeva Muqaddas*, Magistratura bo‘limi boshlig‘i

*Pirimova Madina Ramazonovna*,

Namangan davlat pedagogika instituti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang‘ich ta’lim kafedrasida magistranti

[mushtariymuhammadali@gmail.com](mailto:mushtariymuhammadali@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada ona tili ta’limida an’anaviy grammatik yondashuvdan kompetensiyaviy va ijodiy yondashuvga o‘tish masalalari yoritiladi. Xususan, Alijon Hamroyev tomonidan asos solingan ilmiy maktabning o‘quvchilar ijodiy faoliyatini loyihalashtirish borasidagi qarashlari, darslik yaratish metodologiyasi va doktorlik dissertatsiyalari doirasida erishilgan natijalar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘z:** ona tili o‘qitish metodikasi, Alijon Hamroyev, yondashuvlar, tadqiqot, metodika, kompetensiya, grammatika, ijodiy yondashuv, darslik, konsepsiya, kreativlik, uzluksiz ta’lim, loyihalashtirish

## СОВРЕМЕННАЯ КОНЦЕПЦИЯ МЕТОДОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ: ИССЛЕДОВАНИЯ И ПОДХОДЫ (на примере научной школы Алиджона Хамроева)

*Турабоева Мукаддас*, Заведующая магистерской программой

*Пиримова Мадина Рамазоневна*

Магистрант кафедры теории и методики начального образования Наманганского государственного педагогического института

[mushtariymuhammadali@gmail.com](mailto:mushtariymuhammadali@gmail.com)

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы перехода от традиционного грамматического подхода к компетентностно-ориентированному и творческому подходу в обучении родному языку. В частности, анализируются взгляды научной школы, основанной Алиджоном Хамроевым, на разработку творческой деятельности учащихся, методологию создания учебников и результаты, достигнутые в рамках докторских диссертаций.

**Ключевые слова:** методология преподавания родного языка, Алижон Хамроев, подходы, исследования, методология, компетентность, грамматика, творческий подход, учебник, концепция, креативность, непрерывное образование, дизайн

## MODERN CONCEPT OF NATIVE LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY: RESEARCH AND APPROACHES (on the example of Alijon Hamroyev's scientific school)

*Turaboyeva Muqaddas*, Head of the Master's Department

*Pirimova Madina Ramazonovna*,

Master's student of the Department of Theory and Methodology of Primary Education, Namangan State Pedagogical Institute

[mushtariymuhammadali@gmail.com](mailto:mushtariymuhammadali@gmail.com)

**Abstract.** The article discusses the issues of transition from a traditional grammatical approach to a competency-based and creative approach in native language education. In particular, the views of the scientific school founded by Alijon Hamroyev on the design of students' creative activities, the methodology for creating textbooks, and the results achieved within the framework of doctoral dissertations are analyzed.

**Keywords:** native language teaching methodology, Alijon Hamroyev, approaches, research, methodology, competency, grammar, creative approach, textbook, concept, creativity, continuing education, design

### KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari, jumladan, oliy ta’limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarini tayyorlash, ularda yangi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishni, o‘z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o‘rinni egallaydi. Zamonaviy ta’limda

ta’lim muassasalaridagi o’qitish sifatini ta’minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zahirida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar, ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ilg’or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta’lim mazmuni va o’qitish sifatini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. Bugungi kunda ona tili ta’limi faqatgina imlo qoidalarini o’rgatish emas, balki o’quvchining mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini shakllantirish vositasiga aylandi. Bu borada O’zbekistonda shakllangan metodik maktablar orasida pedagogika fanlari doktori, professor Alijon Hamroyev ilmiy maktabi alohida o’ringa ega. Mazkur maktabning asosiy maqsadi — o’quvchini til tizimini o’rganuvchi "tilshunos" emas, balki tildan samarali foydalanuvchi "ijodkor shaxs" sifatida tarbiyalashdir. Ona tili o’qitish metodikasining zamonaviy konsepsiyasi doirasida o’quv elementlarini ajratish va o’quvchilarning real imkoniyatlarini o’rganish me’yorlari ishlab chiqilgan. Bu esa o’qituvchiga darsni shunchaki o’tish emas, balki uni o’quvchi shaxsidan kelib chiqib "loyihalashtirish" imkonini beradi. Professorning o’quv qo’llanmalarida ijodiy faoliyatni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish prinsiplari aniq ko’rsatib berilgan.

#### ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi fani o’z vazifalarini belgilab olishda ta’lim sohasidagi davlat hujjatlariga tayanadi. Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta’limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo’nalishiga aylandi. „Ta’lim to’g’risida“gi qonun va shu asosda yaratilgan „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ buning yorqin dalilidir Bo’lajak pedagog mutaxassislarni zamon talablari asosida aqliy, axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalash “Ona tili o’qitish metodikasi” fanining ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur fan orqali bo’lajak mutaxassislar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga doir ilmiy-nazariy, amaliy-metodik bilimlar, zarur ko’nikma va malakalar hajmini, o’qituvchi shaxsida namoyon bo’lishi lozim bo’lgan umumkasbiy va shaxsiy fazilatlarini muvaffaqiyatli egallashi kerak. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o’qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo’lib, u tekshiradigan masalalarni boshlang’ich sinf o’quvchilariga tadbiquan (muvofiq ravishda) o’rgatadi. Shu bilan birga, boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasining o’ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang’ich sinflarda ona tilini o’qitish grammatika, imlo va unga bog’liq holda nutq o’stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o’rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o’qish metodikalarini ham o’z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) boshlang’ich sinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya’ni kursning (xat-savod o’rgatish, o’qish, grammatika, imlo, nutq o’stirish va h.k.) dasturini belgilash va asoslash;
- b) o’qish va yozuvdan bilim va ko’nikmalarning shakllanishi jarayonini ham da bu jarayonda o’quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni o’rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to’g’rilashga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish;
- d) ona tilidan beriladigan o’quv materialini o’quvchilar aniq tushunishi va puxta o’zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq etishga va o’quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya’ni ularning zehni, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o’ylashini, nutqini o’stirishga yordam beradigan metod va vositalarni ishlab chiqish;
- e) ona tilini o’rgatish bilan bog’liq holda maktablar oldiga qo’yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o’quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish.

Ona tili o’qitish metodikasi ta’limning turli bosqichlarida o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini aniqlaydi, o’qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, xato va kamchiliklarni bartaraf etish usullarini topadi. Ona tili metodikasi ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ona tilini o’qitishning izchillik va uzluksizligini ta’minlaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasida, asosan, bolalarning nutqini o’stirish nazarda tutiladi. Boshlang’ich sinfda o’quvchilar nutqini o’stirishdan tashqari, ona tilidan elementar nazariy tushunchalarni amaliy o’zlashtirishlari ham nazarda tutiladi.

#### METODOLOGIYA

**1-rasm. Ushbu yo’nalishdagi tadqiqotlar quyidagi metodologik prinsiplarga tayanadi:**

**Tizimli-tarkibiy yondashuv:** Ona tili ta'limi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'quv elementlari (fonetika, leksika, grammatika, nutq) tizimi sifatida

**Loyihaviy metod:** O'qituvchi darsni shunchaki o'tmaydi, balki o'quvchining ijodiy faoliyat trayektoriyasini oldindan loyihalashtiradi.

**Kreativ tahlil:** O'quvchilar ning real bilish imkoniyatlarini o'rganish va ularga mos ijodiy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Ma'lumki, jam'iyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordam idagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani mahkamlash va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi. Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi. Ma'ktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

### MUHOKAMA

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standard belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin munosabatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. Global ta'lim makonida ona tili o'qitish endi shunchaki lingvistik ma'lumotlar to'plami emas, balki "hayotiy ko'nikmalar" (soft skills) markaziga aylanmoqda. O'zbekiston metodika fanida bu buriilish bevosita professor Alijon Hamroyev nomi va uning ilmiy maktabi bilan bog'liq. Olimning tadqiqotlari ona tili ta'limini quruq sxemalardan xalos qilib, uni "jonli muloqot va ijodiy tafakkur darsi"ga aylantirishga qaratilgan. Professor A. Hamroyevning "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini modernizatsiyalashning metodik tizimi" mavzusidagi va undan keyingi doktorlik tadqiqotlari ona tili metodikasining "oltin fondi"ga kirdi.

Ilmiy maktabning asosiy yutuqlari:

1. Kreativlik konsepsiyasi: Olim ilk bor ona tili darslarida "ijodiy mahsulot" (insho, bayon, ijodiy matn) yaratishni ta'limning so'nggi maqsadi sifatida belgiladi.
  2. Darslik - faoliyat dasturi: A. Hamroyev muallifligidagi yangi avlod darsliklarida (masalan, 1-4-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi") "spiral prinsipi" qo'llanilgan. Ma'lumotlar soddadan murakkabga, bir-birini inkor etmagan holda takrorlanib boyib boradi.
  3. Integratsiya: Til o'rgatish adabiy mutolaa bilan uzviy bog'landi. Bu esa o'quvchining so'z boyligini oshirish bilan birga, uning estetik didini ham shakllantiradi.
  3. Zamonaviy o'quv qo'llanmalari va ularning metodik ahamiyati
- A. Hamroyev tomonidan ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalar va metodik tavsiyanomalar o'qituvchilar uchun "yo'l xaritasi" vazifasini o'tamoqda. Ularning ahamiyati quyidagi metodik yangiliklarda ko'rinadi:
- Muammoli vaziyatlar tizimi: Har bir dars muammo (savol) bilan boshlanadi, bu esa o'quvchida "Nega shunday?" degan qiziqishni uyg'otadi.
  - Muloqotga yo'naltirilganlik: Darsliklardagi rasmlar, infografikalar va interfaol topshiriqlar o'quvchini muloqotga chorlaydi.
  - Baholashning yangi modellari: Faqat bilimlarni emas, balki o'quvchining fikrni ifodalash qobiliyati, kreativligi va mantiqiy xulosalari baholanadi

Maqolada ta'kidlanganidek, ona tili ta'limini loyihalashtirish bevosita o'qituvchining (va tadqiqotchining) mahoratiga bog'liq. A. Hamroyev maktabi o'qituvchini "innovator" bo'lishga o'rgatadi. Bu tizimda:

- O'quv materiallari shunchaki axborot emas, balki "fikrlash quroli"ga aylanadi;
- O'quvchining real imkoniyatlari (individual xususiyatlari) dars loyihasining markaziga qo'yiladi.

### NATIJALAR

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish — bu murakkab tashkiliy tizimdir. A. Hamroyev tadqiqotlariga ko'ra, bu jarayon shunchaki dars o'tish emas, balki quyidagi elementlarning sintezidan iborat:

**Didaktik tahlil:** O'quv materialidagi har bir mavzuni o'quvchining ijodiy salohiyatini ochishga yo'naltirish.

**Psixologik komponent:** O'quvchining real bilish imkoniyatlarini hisobga olish.

**Boshqaruv va nazorat:** Ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonini bosqichma-bosqich rejalashtirish.

### 2-rasm. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish sintezlash elementlari

Ushbu tizim tadqiqotchining mahorati va loyihalash bo'yicha bilimlariga bevosita bog'liq bo'lib, didaktika va xususiy metodika fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Professor A. Hamroyevning doktorlik dissertatsiyasi va keyingi tadqiqotlari ona tili o'qitish metodikasida tub burilish yasadi. Uning xizmatlari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- Doktorlik dissertatsiyasi ahamiyati: U o'z ishlarida ona tili ta'limini loyihalashtirishning pedagogik tizimini ilmiy asoslab berdi. Bu tizim o'quvchini darsning passiv tinglovchisidan faol ijodkorga aylantirish imkonini berdi.
- Darslik yaratish metodologiyasi: A. Hamroyev rahbarligida yaratilgan yangi avlod darsliklari (xususan, boshlang'ich sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi") butunlay yangi falsafa asosiga qurilgan. Unda qoidalar tayyor holda berilmaydi, balki muammoli vaziyatlar orqali o'quvchining o'zi kashf qilishi ta'minlanadi.
- Kreativ yondashuv: Olimning qarashlariga ko'ra, ona tili darslarida "matn markazlashgan" ta'lim bo'lishi shart. Har bir dars oxirida o'quvchi o'zining mustaqil nutqiy mahsulini (matnini) yarata olishi kerak.

A. Hamroyev ilmiy maktabi tomonidan taklif etilgan metodik yangiliklar quyidagi natijalarga xizmat qilmoqda:

Yo'nalish	An'anaviy yondashuv	A. Hamroyev konsepsiyasi
Maqsad	Qoidalarni yodlash	Ijodiy fikrlashni rivojlantirish
Metod	Tushuntirish-namoyish	Loyihali va muammoli ta'lim
Natija	Nazariy bilim	Nutqiy va kreativ kompetensiya

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosi zamonaviy metodikaning o'zagini tashkil etadi. Alijon Hamroyevning ilmiy maktabi va uning

ko‘p yillik tadqiqotlari natijasida yaratilgan metodik tizim, ona tili darslarini hayotiyashtirishga, o‘quvchilarni erkin fikrlovchi va savodli shaxs qilib tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Olimning doktorlik dissertatsiyasi va o‘quv qo‘llanmalari bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘qituvchilar uchun asosiy dasturilamal bo‘lib qolmoqda. Alijon Hamroyevning ilmiy maktabi yaratgan zamonaviy konsepsiya — bu quruq nazariyadan amaliyotga, yodlashdan anglashga o‘tish demakdir. Olimning ilmiy ishlari va u yaratgan darsliklar kompleksi O‘zbekiston milliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar (PISA, PIRLS) darajasiga ko‘tarishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Ona tili ta’limini loyihalashtirish esa kelajakda intellektual salohiyati yuqori avlodni tarbiyalashning eng samarali mexanizmi bo‘lib qoladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016.
2. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
3. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo‘ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.
- 4Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.
- 5.Azimova I. A... Ona tili va o‘qish savodxonligi 1 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.–T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. - 128 b

<b>Ikramova Aziza Aminovna</b> , Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'rganish tizimlari orqali talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash	136
<b>Jumaniyozova Shahnoza Rajabboy qizi</b> , Alohida ehtiyojmand bolalar bilan ishlashning psixologik xususiyatlari	142
<b>Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi</b> , Pragmatik yondashuv orqali talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	147
<b>Jumayeva Habiba G`aforovna</b> , Ta'lim jarayonida geymifikatsion texnologiyalar vositasida talabalarining o'z-o'zini baholash kompetensiyasini rivojlantirish	156
<b>Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevena</b> , Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar	162
<b>Nadirxanova Nozima Alisherovna</b> , Yozma madaniyatlararo muloqotni o'rgatishda talabalarining sotsiologiyistik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	167
<b>Очиллов Фарход Эгамбердиевич</b> , Трансформация семейных традиций и их влияние на патриотическое воспитание молодого поколения в Узбекистане	171
<b>Qurbonova Nafisa Saidjonovna</b> , Differensiyal ta'lim va uning pedagogik ahamiyati	178
<b>Qo'ldoshev Mehriddin Avezmurodovich</b> , Ahmad Donish ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida yoshlarda ma'naviy-axloqiy kamolotni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	182
<b>G.V. Izbullayeva, Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna</b> , Bo'lajak o'qituvchilarning media-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	187
<b>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</b> , Talabalarda iqtisodiy savodxonlik madaniyatini shakllantirishning innovatsion va intensiv ko'rinishlari	192
<b>Sadullayeva Zarnigor To'liqinjonovna</b> , Talabalarining o'z-o'zini tarbiyalash darajasini diagnostika qilish va monitoring tizimi	197
<b>Safarova Nigora Nasilloevna</b> , Transformativ ta'limning metodologik asoslari: Tanqidiy pedagogika, refleksiv yondashuv va sotsiokonstruktivizm integratsiyasi	204
<b>Teshayeva Dilnoza Chori qizi</b> , Talabalarda ekologik mas'uliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik omillari	210
<b>D.I. Normatova</b> , Ingliz tili o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	217
<b>Jumayeva Habiba G`aforovna</b> , Ta'lim jarayonida geymifikatsion yondashuv orqali talabalarining evristik-kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	222
<b>Raximbayeva Gulyora Ulug'bekovna</b> , Talabalarda media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlik	228
<b>Hamdamova Nigora Olimovna</b> , Pedagogical approaches and methods in understanding semantic content	234
<b>Yaxyayeva Shoiraxon Toxirboyevna</b> , Milliy kontent vositasida bolada tahliliy fikrlashni shakllantirish metodikasi	240
<b>Filologiya fanlari</b>	
<b>Зиядуллаева Гульчехра Фатилло Кызы</b> , Семантические синонимы глагола "Пить чай" И их стилистические особенности	245
<b>Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna</b> , XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhiti va Abdurahmon Tamkin Buxoriyning adabiy merosi	250
<b>Axmedova Dildora Bahodirovna, Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi</b> , O'quvchilarning nutqiy etiket kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	255
<b>Ahatova Durdona Davron qizi</b> , Omon Muxtor hikoyalaridagi badiiy zamon va inson tasvirining o'ziga xosliklari	260
<b>Baxtiyorova Durdona Ixtiyor qizi</b> , "Korpus texnologiyalari va sun'iy intellekt integratsiyasi asosida ingliz tilida og'zaki nutq hamda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish"	264
<b>Nosirova Dilfuza Mustafoyevna</b> , Masallarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari	271
<b>Nosirova Nodirabegim Nodirovna</b> , Til o'rganish jarayonida sun'iy intellektning integratsiyasi: Lingvistik kompetensiyani shakllantirish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	275
<b>To'raboyeva Muqaddas, Pirimova Madina Ramazonovna</b> , Ona tili o'qitish metodikasining zamonaviy konsepsiyasi: Taqiqotlar va yondashuvlar (alijon hamroyevning ilmiy maktabi misolida)	279
<b>Ijtimoiy fanlar</b>	